



TILSHUNOSLIKDA RETSIPOKLI PREDIKATLAR HOSILASINING MA'NO VA MUNOSABAT SHAKLLARI

Sharipov Bobur Salimovich

Samarqand Zarmed universiteti Tillar kafedrası o'qituvchisi

E-mail: sharipovbobur9689@gmail.com

Orcid: <https://orcid.org/0009-0005-9787-8753>

Telefon: +998932919089

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikda retsiprokli predikatlar hosilasining ma'no va munosabat shakllari to'g'risida ma'lumot berilgan. Retsiprokli predikatlarning ma'no qirralari jumladan jismoniy ta'sir, ijtimoiy munosabat, intellektual munosabat va nutqiy faoliyatlarda bir necha shaxsning nutqiy muloqotini anglatuvchi retsiproklik ifodalangan. Bundan tashqari frazeologizmlar va ulardan anglashiladigan o'zaro munosabat ma'nosi (retsiprokli derivat) ifodalanishi, ularning predikativli bog'lanishi, o'zaro aloqadorligi borasida fikr va mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: predikat, sintaktik qurilma, derivatsiya, affiks, aktant, denotat, transpozitsiya.

MEANING AND RELATIONAL FORMS OF DERIVATION OF RECIPROCAL PREDICTIONS IN LINGUISTICS

Abstract. This article provides information on the meaning and relational forms of the derivative of reciprocal predicates in linguistics. The meaning aspects of reciprocal predicates, including physical influence, social interaction, intellectual interaction, and reciprocity, which means the verbal communication of several individuals in speech activities, are expressed. In addition, thoughts and considerations are given on the expression of phraseologisms and the meaning of the reciprocal relationship (reciprocal derivative) understood from them, their predicative connection, and their interrelation.

Key words: predicate, syntactic device, derivation, affix, actant, denotate, transposition.

ЗНАЧЕНИЕ И ОТНОСИТЕЛЬНЫЕ ФОРМЫ ВЫВОДА ВЗАИМНЫХ ПРЕДСКАЗАНИЙ В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация. В данной статье представлена информация о значении и реляционных формах взаимных предикатов в лингвистике. Взаимность, под которой понимается речевое общение нескольких лиц, выражается в аспектах значения реципрокных

предикатов, включая физическое воздействие, социальную установку, интеллектуальную установку и речевую деятельность. Кроме того, имеются мнения и комментарии по поводу выражения фразеологизмов и значения взаимного отношения (взаимной производной), их предикативной связи и взаимосвязи.

Ключевые слова: сказуемое, синтаксический аппарат, деривация, аффикс, актант, денотат, транспозиция.

KIRISH. Tilshunoslikda predikatlar va ularning turli shakllari tilning morfologik va sintaktik strukturasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, har bir predikat o‘zida ma‘no, semantika va muloqotdagi rollarni mujassamlashtiradi. Ayniqsa, retsiprokli predikatlar tilshunoslikda juda muhim o‘rin tutadi, chunki ular o‘zaro munosabatlarni, aloqalarni, birgalikdagi harakatlarni ifodalashda keng qo‘llaniladi. Retsiprokli predikatlar, o‘z navbatida, faqat tilda mavjud bo‘lgan morfologik strukturalar bilan bog‘liq bo‘lib qolmay, balki ular semantik jihatdan ham ko‘p qirrali bo‘lib, turli muloqot vaziyatlarida o‘z ifodasini topadi.

Ushbu maqolada, retsiprokli predikatlarning hosilasining ma‘no va munosabat shakllari, ularning tilshunoslikda tutgan o‘rni, semantik derivatsiya jarayonlari va frazeologik birliklarda qanday ifodalanishligi batafsil ko‘rib chiqiladi. Maqolada, shuningdek, retsiprokli predikatlar bilan bog‘liq turli semantik va sintaktik jarayonlar tahlil qilinadi, jumladan, jismoniy ta‘sir, ijtimoiy munosabatlar, intellektual munosabatlar va nutqiy faoliyatda retsiprokli ifodalar qanday shakllanishi va nutqiy muloqotda qanday ma‘no kasb etishi yoritiladi.

Bu tadqiqotning maqsadi o‘zaro munosabatlarni ifodalovchi predikatlar va ularning shakllanish jarayonlarini tahlil qilish orqali tilshunoslikda retsiprokli konstruktsiyalarni chuqurroq tushunishga erishishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Retsiprokli predikatlar tilshunoslikda keng muhokama qilingan mavzu bo‘lib, ular turli tillarda o‘zaro munosabatlarni ifodalashda markaziy o‘rin egallaydi. Adabiyotlarda retsiprokli konstruktsiyalar nafaqat sintaktik, balki semantik jihatdan ham o‘rganilgan. Maslova (1999) va Nedyalkov (2007) kabi olimlar retsiprokli konstruktsiyalarni tahlil qilishda ularning semantik va sintaktik xususiyatlarini, shuningdek, tilning morfologik qurilmalari bilan aloqasini chuqur o‘rganishgan. Maslova, o‘z ishlarida, retsiprokli konstruktsiyalarni to‘g‘ri tushunish uchun, ularning formati va funksiyalariga e‘tibor qaratgan. Uning fikricha, retsiprokli predikatlar faqat fe‘lni ifodalashdan tashqari, ular bilan bog‘liq aktantlar va ularning aloqalariga ham katta e‘tibor berishni talab etadi. Shuningdek, Letuchiy (2009) o‘z tadqiqotlarida retsiprokli predikatlarning ko‘plab tillardagi muhim semantik funksiyalarini o‘rganishgan.

O‘zbekistonlik olimlar ham bu sohada katta ishlarni amalga oshirishgan. Rahmatullayevning "O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati" (1978) asarida, frazeologizm va retsiprokli konstruktsiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlik alohida ta‘kidlangan. Bu tadqiqotlar orqali o‘zbek tilidagi retsiprokli frazeologizmlar, ularning semantik tuzilmasi va sintaktik shakllari yoritilgan. Shuningdek, Kurilovich (2000) transpozitsiya hodisasining semantik jihatdan

o'zgarishini o'rganishda, tilning leksik va sintaktik qismlaridagi ma'no o'zgarishlarini ko'rsatgan.

Shuningdek, G. Frege (1977) tomonidan ishlab chiqilgan "semantik uchburchak" nazariyasi so'zning ma'nosi va denotat (narsa yoki hodisa) o'rtasidagi aloqani chuqur o'rganishga imkon beradi. Ushbu nazariya, so'zning lug'aviy va leksik ma'nolarining nutqiy vaziyatga qarab qanday o'zgarishini ko'rsatadi. Bu metodologiya tilshunoslikda retsiprokli predikatlar va frazeologizmlarning semantik jihatlarini o'rganishda asosiy yondashuvlardan biri hisoblanadi.

ASOSIY QISM. O'zaro munosabat semantikasi nutqiy vaziyatda aniq ifodalanganligi bois u sintaktik strukturalarning predikatlariga bog'liq bo'ladi. O'z navbatida, retsiprok predikatlar ham turli ma'no qirralarini namoyon etadi:

a) jismoniy ta'sir;

1. *Markazda ikki tomonning harbiy fillari bir-birlarini tepib, tishlarini tishlariga qarsillatib urar, fil ustidagi kajavalarida o'ltirgan merganlar yov filining ko'zini yoki filbonning ko'kragini mo'ljalga olib yoydan o'q otishardi* (P.Qodirov. Avlodlar dovoni).

2. *O'qlangan, ammo otib ulgurulmagan, piltasi yonmay tutab turgan zambarak quvurlarini xartumlari bilan ko'tarib loyga otdilar* (P.Qodirov. Avlodlar dovoni).

Keltirilgan misollarda retsiproklik natijasi jismoniy ta'sir ma'nosini yuzaga chiqarayotgani izoh talab etmaydi. Bu esa retsiprokli qurilmalarning predikatlariga ifoda etayotgan ma'noga bog'liqdir. Ammo shuni ham aytish kerakki, predikat jismoniy ta'sirni ko'rsatgani bilan retsiprok anglatmasligi mumkin. Masalan, *tepdi, urdi, o'q otdi, loyga otdi* kabi. Ularning retsiprokli qurilma predikati maqomida turishda retsiprok operatorlarining xizmati kattadir. Masalan, *fillar bir-birlarini tepdi, fillar tishlarini tishlariga qarsillatib urdi* – operator *-lar, bir-birlari, merganlar o'q otishdi, fillar loyga otdilar* – operator *-lar, -ish* kabi. Mazkur operatorlar ko'plik formasidan tashqari, sintaktik qurilmaga o'zaro munosabat ma'nosini ham yuklamogda.

Bundan tashqari birinchi misoldagi retsiproklikda tartibsiz hatakat ham kuzatilmoqda. Buni *ikki tomonning harbiy fillari bir-birlarini tepib, tishlarini tishlariga qarsillatib urar* jumlasida ko'rishimiz mumkin. Retsiproklikning mazkur turi an'anaviy tarzda o'zaro munosabat ma'nosidan farq qiladi. An'anaviy retsiproklikda *A Bga ta'sir etadi, B esa Aga*. Masalan, *Sobir Karim bilan ko'rishsa, o'z navbatida, Karim ham Sobir bilan ko'rishadi*. Ammo tartibsiz harakatda *A, B, D, E, F* lar ko'rishishgan bo'ladi. Natijada ko'p sonli agents hamda patsiyslarga bo'linib ketadi. *Tirband avtobusda hamma bir-birini turtar edi* jumlasida xuddi shu holatni kuzatishimiz mumkin. Retsiproklikning semantik derivatsiyasi hosilasida tartibsizlik kuzatilgani bois uni *zanjirsimon xaotik* derivat deb ataymiz. Retsiprok tahlilida «*zanjirsimon xaotik harakat*» termini Y.Maslova, A.Letuchiy tomonlaridan kiritilgan edi²⁵⁸.

²⁵⁸ Qarang: Maslova E. Reciprocals and set construal. Z.Frayzinger and T.S.Curl (eds). Reciprocals: form and function. 1999, pp. 161–178; Летучий А. Двойной реципрок: значение и употребление//Корпусные исследования по русской грамматике. -М.: Пробел, 2009. -С. 335-361.

b) ijtimoiy munosabat;

1. ...*Ertasi kuni qizning ota-onasidan ham rozilik olindi* (P.Qodirov. Avlodlar dovoni).
2. *O'sha oqshom ular ancha bahslashishdi* (Jo'ra Fozil. Yaqin-yiroqlar).

3. *Ahdlashuvchi Tomonlar O'zbekiston infratuzilma qurilishi va boshqa ijtimoiy muhim loyihalarni amalga oshirishda moliyaviy yordam ko'rsatish maqsadida hamkorlik qiladilar* (O'zbekiston Respublikasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida shartnoma//Do'stlik va hamkorlik to'g'risida. 2013-yil 9-sentabr, Toshkent).

4. *Sara o'z turmush o'rtog'ini Nyu Yorkda 1991-yili uchratgan. Ular 1997-yili turmush qurishgan* (Qiziqarli hikoyalar. Elektron manba//qiziqarli.su).

Tahlilga tortilayotgan misollarning birinchisida affiks tarzidagi retsiprok operatorlar ishtirok etmayotgan bo'lsa-da, jumlaning retsiprokli qurilma ekanligi sintaktik struktura tasarrufida kelayotgan *ota-onasidan* shaklidagi operandlardan bilinib turibdi. Juft so'z maqomidagi mazkur operand operator vazifasini ham o'tamoqda. Zero, *ota-ona* ikki subyekt bo'ib, ularning birgalikdagi harakati o'zaro munosabat ma'nosi bilan uzviy aloqadordir. Boshqacha aytganda, ikki shaxs birgalikda ma'lum bir harakatni amalga oshirishga rozilik berishgan. Shuning uchun ham sintaktik qurilmaning retsiprokli ma'no kasb etishida mazkur juft so'zning xizmati beqiyosdir. Uni analitik formadagi retsiprok operator deb ham bilamiz. Bundan tashqari, sintaktik qurilmaning *rozilik olindi* tarzidagi tub strukturalari shaklan passiv bo'lsada, u mantiqan *rozilik olishdi* ma'nosidagi aktiv retsiprokni anglatadi.

Ikkinchi misoldagi *u* kishilik olmoshiga birikib kelayotgan *-lar* hamda *bahslashmoq* so'zidagi *-ish* operatorlari real tarzda ifodalanib, sotsial retsiproklikni anglatishda vazifa bajarmoqda. Ushbu vaziyatda predikat bilan valentlik hosil qilayotgan birinchi darajali aktant ham *u* bilan semantik qurshovga kirishadi: *bahslashishdi – ular bahslashishdi* kabi.

Uchinchi va to'rtinchi misollarda ifoda etayotgan retsiprokli qurilmaning tub strukturalari *hamkorlik qiladilar, turmush qurishgan* tarzidagi analitik retsiprokemalar bilan voqelanmoqda. O'z navbatida, unga mos ravishda harakatning referentlari aniqlanmoqda.

d) intellektual munosabat;

1. *Biz narsa va hodisalarni yaxlit holicha idrok qilamiz, narsalarning ayrim xossalarini esa sezamiz* (G.Raimova. Shaxs va uning tuzilishi).

2. *Jamoa yaxshi holatda. Raqibni sinchikovlik bilan o'rganib chiqdik* (Elektron manba//stadion.uz/news/detail/407965).

Mazkur holatda retsiprokli qurilmalar predikatlaridan semantik jihatdan intellektuallik ifoda etuvchi harakat anglashilmoqda. Birinchi misolda I shaxs ko'plik formasida qo'llanayotgan (*biz*) kishilik olmoshi orqali umuman insonlar haqida fikr yuritilmoqda. Ko'pgina tillarda retsiproklik bildiruvchi bu kabi olmoshlarni V.P.Nedyalkov leksik vositalar sifatida talqin etadi²⁵⁹. Mazkur fikrga qo'shilsa bo'ladi. Ana shu leksik unsurlar derivativ jihatdan retsiprok operatorlari deb yuritiladi. Bundan tashqari, misolimizdagi retsiprokemalar

²⁵⁹ Bu haqda qarang: Nedjalkov V.P. Reciprocal Constructions. Amsterdam: John Benjamins, 2007. V. 3. P. 1095-1162.

analitik hamda affiksial formada bo‘lib, ularga birikib kelayotgan *-miz* qo‘shimchasi ham semantik rejada retsiprok operatori vazifasini o‘tamoqda. Ikkinchi misolda predikat analitik shaklda bo‘lib, unda ko‘makchi fe‘lga birikib kelayotgan I shaxs ko‘plik qo‘shimchasi *-k* retsiprok operatori bo‘ib kelmoqda.

e) nutqiy faoliyat;

1. *Yuqorida chavandozlar salmoqlab-salmoqlab gapirishdi* (Tog‘ay Murod. Ot kishnagan oqshom).

2. *Odamlar o‘zaro pichirlay boshlashdi* (A.Tuxtarov. Ibratli hikoyalar. Elektron manba/islom.uz/maqola/3474).

Keltirilgan misollarda bir necha shaxsning nutqiy muloqotini anglatuvchi retsiproklik ifodalanmoqda. Bunda ham xuddi yuqoridagi misollardagidek, derivativ jihatdan affiksial va analitik retsiprokemalar shakllangan bo‘lib, ularning retsiproklik hosilasi retsiprok operatori maqomida kelayotgan fe‘lning birgalik nisbat shakllari *-sh, -ish* hamda ko‘plik qo‘shimchasi *-lar* ga bog‘liqdir.

TAHLIL VA NATIJALAR. Shuni aytish kerakki, retsiproklik semantikasini tadqiq etganimizda o‘zaro munosabat ma‘nosining frazeologik birliklar orqali ham yuzaga chiqishini kuzatamiz. Bunga misol qilib, Shavkat Rahmatullayevning «O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati»dan olingan quyidagi frazeologizmlarni keltirishimiz mumkin²⁶⁰:

(1-jadval)

Frazeologizmlar	Frazeologizmlardan anglashiladigan o‘zaro munosabat ma‘nosi (retsiprokli derivat)
1. Bir yoqadan bosh chiqarishdi	Hamjihatlik
2. Oralaridan qil ham o‘tmaydi	(o‘zaro) nihoyatda ahil
3. Boshlarini bir joyga qovushtirishdi	oila qurmoq
4. Bir yostiqa bosh qo‘yishdi	oilaviy hayot kechirmoq
5. «San-man»ga borishdi	janjallashmoq
6. Bel bog‘lashdi	musobaqalashmoq
7. Bel olishishdi	kurash tushmoq
8. Don olishishdi	yigit va qizning o‘zaro yaqinligi
9. Yetti yashardan yetmish yashargacha	hamma, ko‘pchilik
10. Ko‘z urishtirishdi	bir-biriga ma‘noli qaramoq
11. Ko‘ngil bog‘lashdi	o‘zaro muhabbatda bo‘lmoq
12. Gapni bir joyga qo‘yishdi	o‘zaro bir fikrga kelmoq

²⁶⁰ Qarang: Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. -Тошкент: Ўқитувчи, 1978.

13. Yuz ko‘rmas bo‘lishdi	o‘zaro aloqani uzmoq
14. Yulduzi-yulduziga to‘g‘ri keldi	bir-biriga mos
15. Yaqinda bo‘lsa tishlashadi, uzoqda bo‘lsa kishnashadi	bir-birisiz tura olmaslik

Jadvalda berilgan frazeologizmlar retsiprok ifodalagani uchun biz ularni predikativli bog‘lanishga aloqador deb bilamiz. Shu bois ham ularni lug‘atda berilganidek infinitiv formada keltirmadik. Chunki fe‘lli birikmalar shaxsli bo‘ladi va nutqda shakllanadi. Bu haqda quyida batafsilroq to‘xtalamiz. Biz ularga faqat birgalik nisbati affikslerini biriktirib shakllantirdik. Aslida, *-lar*, *-dik* kabi formalarni ham qo‘yish mumkin edi. Frazeologizmning semantik jihatdan retsiproklik ifodalashi *transpozitsiya* hodisasiga tayangan holda amalga oshadi. *Transpozitsiya* lotincha so‘z bo‘lib, *siljish*, *almashish* degan ma‘nonlari anglatadi²⁶¹. Belgining semantik jihatdan transpozitsiyaga uchrashi Praga tilshunoslik maktabining taniqli vakili Y.Kurilovich tomonidan aniqlangan edi²⁶².

So‘zning morfemik tuzilishidan anglashiladigan ma‘nosi uning nominal ma‘nosi hisoblanadi. Bundan tashqari, so‘zning nutqiy vaziyatda amalda qo‘llanadigan ma‘nosi ham mavjud bo‘lib, u real ma‘no deyiladi. Boshqacha aytganda, ular lug‘aviy va leksik ma‘no deb yuritiladi. Lug‘aviy ma‘no nisbatan mavhumlik og‘ushida bo‘ladi, chunki u so‘zning lug‘at birligi sifatidagi *vokabulal* ma‘nosi hisoblanadi. Leksik ma‘no esa vaziyat talabiga qarab, bajaradigan vazifasiga ko‘ra nutqda konkretlashadi. Mazkur holat fanda G.Frege uchburchagi asosida isbotlangan bo‘lib, so‘zning *denotat* (narsa yoki hodisa) hamda *signifikat* (ma‘no yoki tushuncha) qismlariga ega ekanligi ta‘kidlab o‘tilgan²⁶³. G.Frege mantiqiy semantikaning asoschisi hisoblanadi. Uning «Ma‘no va denotat» nomli maqolasida nomlar nazariyasi izohlanadi. Aynan ana shu nazariya «semantik uchburchak» yoki «Frege uchburchagi»ning asoslanishiga sabab bo‘ldi²⁶⁴.

Masalan, *minmoq* so‘zi orqali velosipedga yoki otga minishni anglatuvchi nominal ma‘noni tushunamiz. Ammo *mashinaga minmoq* deganda nutqiy vaziyatda mashina saloniga kirib o‘tirish nazarda tutilayotgan real ma‘no anglashiladi (Tom ma‘noda mashinaga minib bo‘lmaydi, balki unga o‘tiriladi). Ba‘zan bir nominal ma‘no turli real ma‘nolarni ifodalashga ham xizmat qilishi mumkin. Masalan, *avtomat* so‘ziga e‘tibor qarataylik. Ushbu so‘z real jihatdan *sovuq qurol* (avtomatdan otmoq), *jamoat telefoni* (telefon avtomatda gaplashmoq), *imtihon bahosining so‘ramay qo‘yilishi* (avtomatik tarzda baho qo‘ymoq), *suv ichish mumkin bo‘lgan vosita* (avtomatdan gazlangan suv ichmoq) kabi turli tushunchalarni ifodalashda qo‘llanadi. Shunday ekan, so‘z ma‘nosining qayta ishlanishi orqali nominal ma‘no transpozitsiyaga uchraydi. Buni real ma‘noning ideomatizatsiyasi deb ataymiz. V.N.Teliya

²⁶¹ Qarang: Большой энциклопедический словарь. Языкознание. -М.: Большая Российская энциклопедия, 1998. -С.519.

²⁶² Qarang: Курлович Е. Очерки по лингвистике. -Биробиджан: ТРИВИУМ, 2000.

²⁶³ Bu haqda qarang: Фреге Г. Смысл и денотат (перевод с немецкого Е.Э.Разлоговой)//СиИ, №8, 1977. -С. 181-210.

²⁶⁴ Qarang: Turniyazov B.N. Kauzativ qurilmalar sintaktik derivatsiyasi. Kauzatologiya. -Samarqand: SamDCHTI, 2022, 11-b.

to‘g‘ri ta’kidlaganidek, transpozitsion o‘zgarishlar asosida grammatik metafora mavjud bo‘ladi²⁶⁵.

Yuqoridagi jadvalda keltirilayotgan birikmalarning ma’nosi ham semantik jihatdan transpozitsiyaga uchragan holda o‘zaro munosbat situatsiyasini anglatuvchi retsiprokal frazeologizmlarning hosilasini taqozo etmoqda. Buni *retsiprokal transpozitsiya* deb yuritamiz. Zero, ular ifodalayotgan ko‘chma ma’nodan birgalikda bajarilayotgan harakat jarayoni ham tushunilmoqda. Ushbu vaziyatda semantik derivatsiyaning retsiprokli ko‘rinishi yuzaga kelmoqda.

XULOSA. Umuman, boshqa tillarda bo‘lgani kabi o‘zbek tilida ham retsiprokal ma’no ifodalovchi frazeologizmlar talaygina. Mazkur birliklar birgalikda bajarilgan yoki bajariladigan harakatni ifodalashda xizmat qiladi. Ushbu maqolada retsiprokli predikatlar hosilasining ma’no va munosabat shakllari tilshunoslikda keng o‘rganilgan fenomen sifatida tahlil qilindi. Retsiprokli predikatlar nafaqat sintaktik tuzilmalarda, balki semantik jihatdan ham o‘zaro aloqalarni, munosabatlarni ifodalashda katta rol o‘ynaydi. Maqolada ko‘rsatilganidek, retsiprokli predikatlar jismoniy ta’sir, ijtimoiy munosabatlar, intellektual aloqalar va nutqiy faoliyatlar orqali o‘z ifodasini topadi. Har bir turli retsiprokli konstruksiyalar o‘ziga xos semantik va sintaktik xususiyatlarga ega bo‘lib, ular tilshunoslikda alohida o‘rganishni talab etadi.

Shuningdek, frazeologizmlar orqali ifodalangan o‘zaro munosabatlar, transpozitsiya hodisasi orqali semantik jihatdan retsiprokal ma’nolarni anglash mumkinligi ko‘rsatilgan. Bu tahlilni chuqurlashtirish va retsiprokli predikatlar va frazeologizmlarning yanada murakkab tuzilmalari va o‘zaro aloqalari bo‘yicha yangi tadqiqotlar olib borish zarur.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan nazariy tahlillar tilshunoslikda retsiprokli predikatlarning ma’no shakllarining kompleks va ko‘p qirrali tabiati haqida yangi tasavvurlarni shakllantirishga yordam beradi. Bu esa, o‘z navbatida, tilning morfologik va sintaktik strukturalarini chuqurroq tushunishga, shuningdek, tilshunoslik fanining rivojiga hissa qo‘shishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maslova E. Reciprocals and set construal. Z.Frayzinger and T.S.Curl (eds). Reciprocals: form and function. 1999, pp. 161–178;
2. Летучий А. Двойной реципрок: значение и употребление//Корпусные исследования по русской грамматике. -М.: Пробел, 2009. -С. 335-361.
3. Nedjalkov V.P. Reciprocal Constructions. Amsterdam: John Benjamins, 2007. V. 3. P. 1095-1162.
4. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. -Тошкент: Ўқитувчи, 1978.

²⁶⁵ Bu haqda qarang: Телия В.Н. Семантика связанных значений слов и их сочетаемости//Аспекты семантических исследований. -М.: Наука, 1980. -С.279.

5. Большой энциклопедический словарь. Языкознание. -М.: Большая Российская энциклопедия, 1998. -С.519.

6. Курилович Е. Очерки по лингвистике. -Биробиджан: ТРИВИУМ, 2000.

7. Фреге Г. Смысл и денотат (перевод с немецкого Е.Э.Разлоговой)//СиИ, №8, 1977. - С. 181-210.

8. Turniyazov B.N. Kauzativ qurilmalar sintaktik derivatsiyasi. Kauzatologiya. - Samarqand: SamDCHTI, 2022, 11-b.